

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

YURTIMIZDA MAVJUD MUHOFAZA QILINADIGAN TABIIY HUDDULAR, ULARNING AHAMIYATI VA BUGUNGI KUNDAGI AHVOLI

Shavqiyev Erkin,

SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi professori

Ulugmurodov Farhod Faxriddinovich,

SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Hamdamov Mirkomil Bo‘riboy o‘g‘li,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yurtimizda mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, ularning ahmiyati va bugungi kundagi ahvoli haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, odamlarning faoliyati ta'siridan himoyalangan yoki minimal darajada ta'sir ko'rsatilgan hududlar, ekologik muvozanatni saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish zarurligi haqida quyidagi ma'lumotlarni o'qishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar: qo`riqxonalar, milliy bog`lar, ekologik muvozanat, biodiversitet, milliy bog`lar, tabiat rezervatlari, biosfer rezervatlari, tabiat yodgorliklari, ekologik himoya hududlari, tabiatni himoya qilish, tabiiy resurslar, iqlim o'zgarishi, ekoturizm, hayvonot dunyosi, o'simliklar dunyosi, tabiatni saqlash.

Abstract. This article provides information about the protected natural areas in our country, their significance and current status. You can read the following information about protected natural areas, areas protected from human activity or minimally affected, the need to maintain ecological balance, and protect flora and fauna.

Keywords: protected natural areas: reserves, national parks, ecological balance, biodiversity, national parks, nature reserves, biosphere reserves, natural monuments, ecologically protected areas, nature protection, natural resources, climate change, ecotourism, fauna, flora, nature conservation.

Аннотация. В данной статье представлена информация об охраняемых природных территориях нашей страны, их значении и современном состоянии. Вы можете прочитать следующую информацию об охраняемых природных территориях, территориях, защищенных от деятельности человека или минимально пострадавших территориях, необходимости поддержания экологического баланса и защиты флоры и фауны.

Ключевые слова: охраняемые природные территории: заповедники, национальные парки, экологический баланс, биоразнообразие, национальные парки, заповедники, биосферные заповедники, памятники природы, эколого-охраные территории, охрана природы, природные ресурсы, изменение климата, экотуризм, фауна, флора, охрана природы.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

Kirish.

Yurtimizda mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ekologik barqarorlikni saqlash, biologik xilma-xillikni himoya qilish va tabiatni saqlash maqsadida tashkil etilgan. Ular nafaqat tabiatni saqlashga yordam beradi, balki hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi Ushbu hududlar turli shakllarda bo'lib, ularning har biri o'zining ekologik, ilmiy, madaniy va turistik ahamiyatiga ega. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar orasida milliy bog'lar, tabiat rezervatlari, biosfer rezervatlari, tabiat yodgorliklari va ekologik himoya hududlari mavjud

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, davlat qo'riqxonalari qat'iy muhofaza qilinadigan hududlar bo'lib, ularda yovvoyi tabiat yil bo'yli kuzatib boriladi. Hozirgi kunda respublika hududida 9 ta davlat tabiiy qo'riqxonasi mavjud bo'lib, ularning asosiy vazifasi tabiat landshaftlari, noyob va nodir hayvon, o'simlik turlarini tabiiy holatda saqlab qolish bilan birga, kelajakda ular hududini kengaytirib borishdan iborat..

Qo'riqxonalar — belgilangan qonunlarga muvofiq, davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki mahaliy ahamiyatga ega bo'lgan (tipik yoki noyob landshaft, o'simliklar va hayvonotning dunyosi, foydali qazilmalar va boshqalar.), tabiiy obyekt joylashgan yer (hudud) yoki suv kengliklari; i. t. va madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun uzoq muddatga ajratilgan va to'laligicha xo'jalik ishlardan xoli tabiiy majmua.

20-asrning 90-y.larida BMTning "Milliy bog'lar va ular maqomidagi qo'riqxonalar ro'yxati"ga 2618 alohida qo'riqlanadigan hududlar (yer may-doni 4 mln. km²dan ortiq va Yer yuzidagi quriqlikning 3% ini tashkil qiladi) kiritilgan hududi va uning atrofidagi belgilangan chegaradagi muhofaza qilinadigan zonalarda qo'riqxonalar tabiiy majmuasiga zarar yetkazadigan yoki tabiiy obyektlarga xavf tugdiradigan har qanday faoliyat (ov qilish, baliq tutish, daraxt kesish, foydali qazil-malarni kavlash, o't o'rish, mol boqish va boshqalar), shuningdek, Qo'riqxonalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sanoat va qo'shma korxonalar obyektlari qurilishi ham taqilanganadi. Qo'riqxonalar faoliyati ma'muriyatning ruxsatsiz begona odamlar kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ovchilik xo'jaliklari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar boshqarmasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida 8 ta davlat qo'riqxonasi bor: Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi, Badayto'qay davlat qo'riqxonasi, Qizilqum davlat qo'riqxonasi, Zarafshon davlat qo'riqxonasi, Surxon davlat qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, Chatqol bio-sfera qo'riqxonasi, Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi. O'zbekistonda, shuningdek, milliy bog' va buyurtma qo'riqxonalar faoliyat olib boradi^[1].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va u davlat muhofazasidadir. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadiga rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

1.Davlat qo'riqxonalar — Tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar qo'riqxonalar — Tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar,

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o'rganish uchun mo'ljallangan, umumdavlat ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy hududlar hisoblanadi. Davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Shuningdek, davlat qo'riqxonalarining hududida hamda ularning qo'riqlanma zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqanadi.

2. Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari – alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari hisoblanadi. Landshaft buyurtma qo'riqxonalari hududida har qanday faoliyat taqiqanadi, ilmiy-tadqiqot, rekratsiya faoliyati, atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish, shuningdek, pichan o'rish va chorva mollar o'tlashish, yovvoyi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun, Landshaft qo'riqxonalari xodimlarining va mazkur qo'riqxonalarning qo'riqlanma zonalarida yashovchi fuqorolarning o'z ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning dorivor va texnik xom ashyosini tayyorlash (yig'ish) bundan mustasno.

3. Tabiat bog'lari – alohida ekologik, madaniy va estetik qiymatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekratsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy 408 hududlar hisoblanadi. Tabiat bog'lari ikki yo'nalishda tashil qilishi mumkin: milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga ega tabiat bog'lariga bo'linadi.

4. Tabiat bog'larini tashkil etilayotganda ularning hududi zonalarga bo'linadi. Tabiat bog'larining hududida qo'riqxonalarga aylantirilgan zonalarida davlat qo'riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejim o'rnatiladi. Tabiat bog'larining rekratsiya zonalarini tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimli uchastkalarga bo'linishi mumkin. Xo'jalik maqsadida vaboshqa maqsadlarda foydalanish zonalarida aholining istiqomat qilishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazmaydigan faoliyatiga yo'l qo'yiladi.

5. Davlat tabiat yodgorliklari – noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlar hisoblanadi,

Milliy bog'lar, ayniqsa, yurtimizda keng tarqalgan muhofaza qilinadigan hududlardan biridir. Ular faqat tabiatni saqlash maqsadida emas, balki o'quvchilarga, ilmiy tadqiqotchilarga va turistik sayohatchilarga ham tabiat bilan tanishish imkoniyatini beradi. Milliy bog'lar asosan o'simlik va hayvonot dunyosining muhim vakillarini saqlashga qaratilgan. Misol uchun, Jizzax viloyatidagi "Zomin milliy parki", Samarqand viloyatidagi "Zarafshon" milliy bog'i kabi hududlar juda boy tabiiy resurslarga ega.

O'zbekistonning milliy g'ururi - yaqinlarda "**O'zbek Shveytsariyasi**" nomini olgan mamlakatning asosiy kurorti - Zomin milliy tabiat parkidir. Bu hudud azaldan o'ziga xos tabiatni va shifobaxsh havosi bilan mashhur. Maydoni 25 gektardan ortiq bo'lgan bu milliy park, Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Turkiston tog' tizmasining shimolida

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

joylashgan. Park, birinchi bo'lib XIX asrning 60-yillarida rus olimi va biolog A.P.Fedchenko tomonidan o'r ganilgan. 1960 yilda esa va noyob archa o'rmonlari va ularning noyob hayvonot dunyosini saqlab qolish maqsadida qo'riqxonaning o'zi tashkil etilgan. Milliy parkning iqlimi keskin kontinental bo'lib, fasllarning almashishlari yaqqol seziladi. Bahorda o'rmonlar yam-yashil. Yomg'irning ko'p qismi aprel, oktyabr va yanvar oylariga to'g'ri keladi. Iyul va avgust oylarida harorat +32 darajagacha ko'tariladi, yanvarda esa -30 gacha pasayishi mumkin.

Tabiat rezervatlari esa biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy o'simlik va hayvonot turlarini himoya qilish uchun yaratilgan hududlardir. Rezervatlar faqat ilmiy tadqiqotlar va tabiatni saqlash uchun ishlataladi. Yurtimizda mavjud bo'lgan "Nurota" tabiiy rezervati, "Badayto`qay" rezervati kabi hududlar tabiiy ekosistemalarni saqlash va ularni tiklash maqsadida tashkil etilgan.

Tabiat yodgorliklari va ekologik himoya hududlari ham tabiiy resurslarni saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida tashkil etilgan. Tabiat yodgorliklari – bu tabiiy shakllar yoki tabiiy manzaralar, masalan, tog' tizmalari, daryolar, ko'llar, tarixiy tabiiy yodgorliklar bo'lib, ular o'zining madaniy va ilmiy ahamiyatiga ega. Ekologik himoya hududlari esa muayyan hududda inson faoliyatini cheklash orqali tabiiy resurslarning barqaror foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda bu hududlar tabiatni saqlashga xizmat qilsa-da, inson faoliyati ta'siri, iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyatining ko'payishi kabi xavf-xatarlar ham mavjud. Tabiiy hududlarga antropogen ta'sirlar kamaytirilmoqda, lekin barqaror rivojlanish va ekologik qonunchilikni kuchaytirish zarur. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta'lim berish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali bu hududlar yanada samarali saqlanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ekologik mas'uliyatni oshirish va tabiatni saqlashda davlat va jamiyatning hamkorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Yurtimizda mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hududlar faqat tabiiy resurslarni himoya qilish bilan cheklanmay, balki ularning ekologik, ilmiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ham o'z ichiga oladi.

Birinchidan, tabiiy hududlar biologik xilma-xillikni saqlashda katta rol o'ynaydi. Tabiiy muhitni himoya qilish orqali o'simliklar va hayvonlar turlarining yo'qolib ketishining oldini olish mumkin. Bu hududlarda o'simliklar va hayvonlar turlarining mavjudligi ekologik tizimlarning barqarorligini ta'minlaydi va tabiiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Masalan, O'zbekistonning tabiiy hududlarida yashovchi o'simliklar va hayvonlar turlari xalqaro biologik xilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ilmiy tadqiqotlar uchun zarurdir. Bu hududlar, tabiatni o'r ganish, ekologik jarayonlarni kuzatish va ilmiy ma'lumotlar olish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ilmiy izlanishlar natijasida tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va ularni saqlash bo'yicha yangi usullar ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga,

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

bu hududlarda ilmiy ishlar olib borish natijasida tabiatni saqlash va boshqarishning samarali yo'llari haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Uchinchidan, tabiiy hududlarning iqtisodiy ahamiyati ham katta. Ular ekoturizmni rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Ekoturizm, tabiiy go'zalliklar va resurslardan foydalanishni eng kam darajada ekologik ta'sir ko'rsatadigan tarzda amalga oshiradi. Bunday turizm turi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqning ekologik savodxonligini oshiradi va tabiatni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytiradi. Yurtimizdagi milliy bog'lar, biosfer rezervatlari va tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirish uchun muhim manbalarni tashkil etadi.

To'rtinchidan, tabiiy hududlarning madaniy va tarixiy ahamiyati ham bor. Ular o'zida qadimiylarini, tarixiy manzaralarni va o'ziga xos landshaftlarni saqlab kelmoqda. Masalan, tabiiy yodgorliklar, qadimiylar, daryolar va ko'llar nafaqat tabiatni, balki xalqning tarixiy va madaniy merosini ham o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, bunday hududlar ko'plab san'atkorlar, yozuvchilar va ilmiy tadqiqotchilar uchun ilhom manbaiga aylangan.

Beshinchidan, tabiiy hududlar iqlimi saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ekosistemalar, o'simliklar va daraxtlar iqlim o'zgarishining oldini olishda, uglerod dioksidining kamayishiga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Ular havoni tozalash, suv resurslarini boshqarish va tuproq eroziyasini oldini olishda katta ahamiyatga ega. Tabiiy hududlarning yaxshi saqlanishi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda katta yordam beradi.

Oxir-oqibat, tabiiy hududlar ekologik, ilmiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyat bilan birga, jamiyatning umumiy barqaror rivojlanishiga hissa qo'shami. Tabiatni muhofaza qilish orqali nafaqat tabiatni saqlash, balki insoniyatning kelajak avlodlari uchun ham sog'lom va barqaror yashash muhiti yaratish mumkin. Tabiiy hududlarning ahamiyatini anglash va ularni saqlash, har bir fuqaro va davlatning mas'uliyati bo'lishi kerak.

Xulosa sifatida shuni takidlash kerakki yurtimizda mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar nafaqat tabiiy resurslarni saqlash, balki ekologik muvozanatni ta'minlash, biologik xilma-xillikni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda, bu hududlar bir qator tahdidlarga duch kelmoqda, jumladan, antropogen ta'sirlar, iqlim o'zgarishi, sanoat rivojlanishi va noto'g'ri tabiiy resurslar boshqaruvi kabi omillar tabiiy ekosistemalarning barqarorligini xavf ostiga qo'ymoqda. Bu holatlar tabiiy hududlarning barqarorligini ta'minlash uchun samarali choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Davlat tomonidan olib borilayotgan choralar, tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo'yicha yangi qonunchilik va tashabbuslar, ekoturizmni rivojlantirish kabi tashabbuslar tabiiy resurslarni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va ekologik ta'lim orqali aholining ekologik savodxonligini oshirish, tabiiy hududlarga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni kuchaytirish zarur.

Kelajakda tabiiy hududlarning holati yanada yaxshilanishi mumkin, ammo bu faqat ekologik ongni oshirish, tabiiy resurslarni boshqarish va ularni barqaror rivojlantirishga

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

qaratilgan kompleks choralar orqali amalga oshiriladi. Tabiiy hududlarni saqlash, nafaqat bugungi kunda, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa bo‘lib qoladi. Shunday qilib, tabiiy hududlarni muhofaza qilish — bu nafaqat ekologik mas’uliyat, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, T. (2017). *Tabiatni muhofaza qilish: muammolar va istiqbollar*. Tashkent: Ekoliya nashriyoti.
2. Shamsiev, D. (2018). *O‘zbekiston tabiiy resurslari va muhofazasi*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Karimov, A. (2015). *Milliy bog‘lar va ularning ekologik ahamiyati*. Tashkent: Qog‘oz nashriyoti.
4. Isakov, K. (2020). *Yurtimizda ekologik muhofaza va uning qonunchiligi*. Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilari nashriyoti.
5. Xudoiberganov, A. (2019). *Tabiiy hududlarning ekologik barqarorlikdagi roli*. Tashkent: O‘zbekiston davlat universiteti nashriyoti.
6. „[O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIAT RESURSLARI VAZIRLIGI](#)“ (o‘zbek). Qaraldi: 2023-yil 14-may.
7. Mirzayev K.Dj, Ulug‘murodov F.F, Rabbimov E.A. (2024). *Tabiy resurslar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma*
8. Faxriddinovich, U. M. F., Namoz o‘g‘li, Q. T., & Qalandar o‘g‘li, S. F. (2024). O‘ZBEKİSTONDA YASHIL İQTİSODİYOT VA SANOATNING UYG ‘UNLIGI. YANGI O‘ZBEKİSTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(4), 551-556.
9. Faxriddinovich, U. F., & O‘g‘li, N. M. X. (2023). COVID-19 PANDEMIYASINING ROSSIYA İQTİSODİYOTIGA TA’SIRI. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 39-44.
10. Djanzokovich, M. K., Faxriddinovich, U. F., O‘G‘Li, S. F. Q., & Asliddinovna, Q. S. (2024). O‘ZBEKİSTONDA RAQAMLI İQTİSODİYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI. *Journal of marketing, business and management*, 3(4), 52-57.
11. Faxriddinovich, U. F., & Asomiddinovich, I. A. (2024). BARQAROR İQTİSODİY O‘SISHNI TA’MINLASHDA TARKIBIY O‘ZGARİSHLARNI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI. *Journal of marketing, business and management*, 3(6), 1-6.
12. Ulugmurodov, F. F., Shodiev, F. K., & Qurbonov, T. N. (2024). Prospects for the Development of the Green Economy in the Organization of a Sustainable Economy in the Republic of Uzbekistan. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(6), 217-221.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

13. Ulugmurodov, F. F., Shodiev, F. K., & Qurbanov, T. N. (2024). Prospects for the Development of the Green Economy in the Organization of a Sustainable Economy in the Republic of Uzbekistan. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(6), 217-221.
14. Durbek, M., & Faxriddinovich, U. M. F. (2023). O 'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 12-16.
15. Ulugmurodov, F. F., Karshiev, S. A., & Akbarov, J. V. (2023). NEW CHARACTERISTICS OF MOBILE TECHNOLOGY INNOVATIONS IN E-COMMERCE. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 56-59.
16. Faxriddinovich, U. F., & Xusniddinovich, A. F. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 60-63.
17. Faxriddinovich, U. F., & Yoqubovich, K. A. (2023). XITOY IQTISODIYOTI VA UNING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O 'RNI. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 45-50.
18. Faxriddinovich, U. F., Sa'dullayevich, Q. A., & Vohid o'g'li, A. J. (2023). The Role of Artificial Intelligence and Smart Media in the Development of Tourism Services. *International Journal of Scientific Trends*, 2(12), 67-70.
19. Faxriddinovich, U. F., Valizoda, N. U., & Raxmatillo O'g'li, X. S. (2023). ANALYSIS OF THE MAIN CAUSES OF POVERTY IN COUNTRIES AROUND THE WORLD. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 584-587.
20. Faxriddinovich, U. F., Raxmatillo O'g'li, X. S., & Valizoda, N. U. (2023). Effective Use Of Crowdfunding Opportunities In The Organization Of Electronic Business In The Conditions Of The Digital Economy. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 788-791.
21. Faxriddinovich, U. F., Umidbek o'g'li, R. F., & Xatam o'g'li, S. B. (2023). BUY-SIDE AND SELL-SIDE SYSTEM IN ELECTRONIC COMMERCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1531-1536.
22. Faxriddinovich, U. F., Dilmurod o'g'li, A. A., & Mashrab o'g'li, U. M. (2023). MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 360-362.
23. Faxriddinovich, U. F., & Xatam o'g'li, S. B. (2023). MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATIONAL SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.
24. Faxriddinovich, U. F., Bakhodirovich, E. D., & Rustam o'g'li, S. M. (2023). THE ROLE OF STUDENT ACTIVISM IN THE DIGITIZATION OF EDUCATION (THE HEMIS PROGRAM AND THE SYSTEM OF CREDIT MODULES). *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 16, 220-222.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

25. Ulugmurodov, F. F., & Bahodirovich, H. U. (2023). Prospects of Developing Active Tourism in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(6), 69-71.
26. Faxriddinovich, U. F. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS USING INTERACTIVE METHODS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *International Journal of Studies in Advanced Education*, 2(05), 73-75.
27. Faxriddinovich, U. F., Dilmurod o'g'li, A. A., & Mashrab o'g'li, U. M. (2023). MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 360-362.
28. Faxriddinovich, U. F., & Bakhodirovich, E. D. (2023, June). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN THE SERVICE SECTOR IN THE DIGITAL ECONOMY. In " ONLINE-CONFERENCE" PLATFORM (pp. 98-100).
29. Faxriddinovich, U. F., Olimjonovich, M. J., Baxriddinovich, N. S., & Bakhodirovich, E. D. (2023). WAYS TO ACHIEVE HIGH EFFICIENCY WITH THE HELP OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 979-980.
30. Faxriddinovich, U. F., Ixtiyor Ko'pal o'g, Q., & Anvar o'g'li, A. I. (2023). Prospects for the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in the Digital Economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(6), 92-94.
31. Faxriddinovich, U. F., & Ismoil Xasanovich, N. (2023). Ways to Improve the Efficiency of the Public Service System in a Market Economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(6), 72-74.
32. Nodirovna, M. S., Faxriddinovich, U. F., & Dusmurotovich, U. M. (2023). Ways and Prospects for Developing the System of Residential Services in Rural Areas, Increasing Employment.